e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/qcdybz48

FARG‘ONA VODIYSI ZIYORATGOHLARIDA TARIXIY XOTIRA VA XALQ E’TIQODLARINING SAQLANISH MEXANIZMLARI

Mamatov Jasurbek Qodirqul o‘g‘li
Namangan davlat universiteti, katta o‘qituvchi, (PhD).
e-mail: mamatovjasurbek@mail.ru **ORCID**: https://orcid.org/0009-0007-0263-0021

Annotatsiya.
Maqolada Farg‘ona vodiysi ziyoratgohlari nafaqat diniy e’tiqod obyektlari, balki tarixiy xotira, mahalliy identitet va avlodlararo madaniy meros uzviyligini ta’minlovchi ijtimoiy-madaniy makon sifatida tahlil qilinadi. Etnografik va antropologik tadqiqotlarni qiyosiy-tahliliy o‘rganish asosida ziyoratgohlarda tarixiy xotiraning muqaddas makonlar, og‘zaki rivoyatlar, marosim amaliyotlari va ijtimoiy institutlar orqali saqlanish mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari ziyoratgohlarning tarixiy xotirani avloddan avlodga yetkazish, xalq e’tiqodlarini saqlash hamda mahalliy madaniy identitetni mustahkamlashdagi ijtimoiy-madaniy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: ziyoratgoh, qadamjo, tarixiy xotira, xalq e’tiqodlari, identitet, nomoddiy madaniy meros, Farg‘ona vodiysi.

МЕХАНИЗМЫ СОХРАНЕНИЯ ИСТОРИЧЕСКОЙ ПАМЯТИ И НАРОДНЫХ ВЕРОВАНИЙ В МЕСТАХ ПАЛОМНИЧЕСТВА ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ

Маматов Жасурбек Кодиркул угли
Наманганский государственный университет, старший преподаватель, (PhD).

Аннотация.
В статье места паломничества Ферганской долины рассматриваются не только как объекты религиозного почитания, но и как социокультурные пространства, обеспечивающие сохранение исторической памяти, локальной идентичности и преемственности культурного наследия между поколениями. На основе сравнительно-аналитического изучения этнографических и антропологических исследований раскрываются механизмы сохранения исторической памяти в местах паломничества посредством сакрального пространства, устных преданий, обрядовых практик и социальных институтов. Результаты исследования показывают социокультурное значение мест паломничества в передаче исторической памяти от поколения к поколению, сохранении народных верований и укреплении локальной культурной идентичности.

Ключевые слова: место паломничества, священное место, историческая память, народные верования, идентичность, нематериальное культурное наследие, Ферганская долина.

MECHANISMS FOR PRESERVING HISTORICAL MEMORY AND FOLK BELIEFS AT PILGRIMAGE SITES IN THE FERGANA VALLEY

Mamatov Jasurbek Qodirqul o‘g‘li
Namangan State University, Senior Lecturer, (PhD).

Abstract.
This article examines pilgrimage sites in the Fergana Valley not merely as places of religious worship but as sociocultural spaces that ensure the preservation of historical memory, local identity, and the intergenerational continuity of cultural heritage. Based on a comparative analysis of ethnographic and anthropological studies, the article explores the mechanisms through which historical memory is preserved at pilgrimage sites through sacred spaces, oral traditions, ritual practices, and social institutions. The findings highlight the sociocultural significance of pilgrimage sites in transmitting historical memory across generations, preserving folk beliefs, and strengthening local cultural identity.

Keywords: pilgrimage site, sacred place, historical memory, folk beliefs, identity, intangible cultural heritage, Fergana Valley.

Kirish. Ziyoratgohlar (mozor, qadamjo, ostona) Markaziy Osiyo xalqlari madaniy hayotining eng barqaror elementlaridan biridir. Ular asrlar davomida turli siyosiy tuzumlar, diniy talqinlar va ijtimoiy o‘zgarishlarga duch kelgan, shunga qaramay, jamoa hayotidagi o‘rnini yo‘qotmagan. Sovet etnografiyasida ular ko‘pincha «islomgacha bo‘lgan e’tiqodlar qoldig‘i» sifatida talqin qilingan [1]. Keyinroq avliyolar kulti islom doirasidagi mustaqil, o‘z qonuniyatlariga ega hodisa ekani ko‘rsatildi. Bu o‘tish ziyoratgohni «o‘tmish izi» emas, «hozir ishlayotgan ijtimoiy institut» sifatida ko‘rish imkonini berdi.

ISSN 3060-5059 (Online)

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O‘zbek etnografiyasida mavzu bir necha yo‘nalishda yoritilgan. A. Ashirov o‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlarini tizimli o‘rganib, ularning islomiy qatlam bilan assimilyatsiyasini ko‘rsatgan [2]. Farg‘ona vodiysi misolida ziyoratgohlarning tarixi, tasnifi va aholi ijtimoiy hayotidagi o‘rni, ayniqsa, mustaqillik yillaridagi rivoji alohida tadqiqot mavzusiga aylangan [3]. Vodiy ziyoratgohlarining toponimik va geografik xususiyatlari hamda turistik salohiyati ham yaqinda ko‘rib chiqilgan [4]. XIX asr oxirida vodiy aholisi turmushi va e’tiqodlari V. Nalivkin va M. Nalivkina tomonidan batafsil qayd etilgan. Bu asar hozirgi kuzatuvlarni tarixiy chuqurlikda ko‘rish uchun taqqoslash asosi bo‘lib xizmat qiladi [5].

Shunga qaramay, mavjud ishlarning aksariyati ziyoratgohni tasvirlash, tasniflash yoki resurs sifatida baholash bilan cheklanadi. Maqolaning ilmiy muammosi shu bo‘shliqdan kelib chiqadi. Asosiy ilmiy g‘oya shuki, ziyoratgohlar faqat diniy e’tiqod obyektlari emas, balki tarixiy xotira, mahalliy identitet va avlodlararo madaniy meros uzviyligini ta’minlovchi ijtimoiy-madaniy makonlardir. Tadqiqotning maqsadi Farg‘ona vodiysi ziyoratgohlarida tarixiy xotira va xalq e’tiqodlarining saqlanish mexanizmlarini adabiyotlar va dala materiallari asosida aniqlash, ularning bugungi o‘zgarishini tahlil qilishdir.

Tadqiqot sifat yondashuviga asoslanadi va ikki manba guruhiga tayanadi. Birinchisi – nashr etilgan adabiyotlar: o‘zbek etnograflarining ziyoratgoh va qadimiy e’tiqodlarga oid asarlari, vodiy ziyoratgohlariga bag‘ishlangan maqola va dissertatsiyalar, XIX asr etnografik tavsiflari hamda xotira nazariyasi va ziyorat antropologiyasi bo‘yicha xorijiy tadqiqotlar. Ikkinchisi – muallif tomonidan to‘plangan dala materiallari: mahalliy qabriston va ziyoratgohlar, o‘lim marosimlari, davolash amallari va ziyorat odatlari haqida axborotchilar bilan o‘tkazilgan suhbatlar.

NATIJALAR

Adabiyotlar va dala materiallarining birgalikdagi tahlili ziyoratgohlarda xotira bir yo‘l bilan emas, bir-birini to‘ldiruvchi manbalar orqali saqlanishini ko‘rsatdi.

Birinchi manba makonning o‘zidir. Chashma, qoya, daraxt yoki qabr xotiraga o‘zgarmas tayanch beradi: odamlar o‘zgaradi, hikoyalar qayta aytiladi, joy esa qoladi. P. Nora ta’rifi bilan aytganda, xotira makonda «mustahkamlanadi» [6]. Vodiyning tog‘li hududlarida muqaddas joylar muayyan diniy shaxslar bilan bog‘liq rivoyatlar orqali yaxlit ma’naviy xaritaga aylanadi, toponimlar esa o‘zi xotira tashuvchisiga aylanadi [4]. Sang qishlog‘i materiallari bu fikrni aniq tasdiqlaydi. Axborotchilardan birining izohicha, «sang» so‘zi tosh, qattiq joy ma’nosini bildiradi, ya’ni qishloq nomi joyning tabiiy xususiyatini saqlaydi. Qishloqdagi asosiy ziyoratgoh Langar Aziz buva qabristoni bo‘lib, u ikki qismga bo‘lingan, birinchi dafn etilganlar orasida marhum Yodgor aka bor va qabriston Qilichmozor nomi bilan ham ataladi. Joy nomi, dafn tartibi va shaxs nomi bir-biriga bog‘lanib, qabristonning jamoa tarixini o‘zida jamlaydi. Muhimi, joyning moddiy tarkibi ham muqaddas hisoblanadi. Farzandlariga toshma toshganda ota-onalar aynan shu qabriston toshi va tuprog‘ini olib borib ishlatadi. Boshqa axborotchi ham bolalarga toshma chiqqanda Mulla So‘fi Buva ziyoratgohidan tuproq keltirilganini aytadi. G‘assol bo‘lgan axborotchi esa ayoli Termiz qabristoni tuprog‘ini ixlos bilan iste’mol qilgach, o‘g‘il farzand ko‘rganini va ko‘z kasalligi uchun Ro‘shnoy buva ziyoratgohiga borganini eslaydi [7]. Demak, xotira va shifo qudrati faqat rivoyatda emas, joyning o‘zida mujassam deb tushuniladi.

Ikkinchi manba og‘zaki rivoyatlardir. Ziyoratgoh tarixi, asosan, yozma manbalarda emas, avloddan avlodga o‘tuvchi hikoyalarda yashaydi. Bu hikoyalarda tarixiy shaxs, afsonaviy qahramon va mahalliy voqea odatda bir-biriga qo‘shiladi. Tarixiy aniqlik nuqtayi nazaridan bu chalkashlik bo‘lib ko‘rinishi mumkin, xotira nuqtayi nazaridan esa u jamoa uchun tushunarli va eslab qolinadigan shaklga solish usulidir. O‘zbek etnografiyasida qadimiy tasavvurlarning islomiy qiyofada davom etishi qayd etilgan [2], islomlashuv jarayonida mahalliy e’tiqodlarning muqaddas shaxslar timsoliga o‘tishi xorijiy tadqiqotlarda ham asoslangan [8]. Dala tadqiqotlarida olingan rivoyatlar buni yaqqol ko‘rsatadi. Qilichmozor haqidagi hikoyaga ko‘ra, bir jangchi qabriston yonidan o‘tayotganda hamma otdan tushganda qilichini yerga urgan va qilich dastasigacha yerga kirib ketgan. Shundan beri qabriston atrofida otdan tushmaganlar albatta yiqiladi va shu payt qattiq gumburlagan ovoz chiqadi. Bu rivoyat bir vaqtning o‘zida joy nomini («Qilichmozor») izohlaydi va xulq qoidasini (qabriston oldida otdan tushish) ta’sirchan shaklda yodda saqlatadi. Boshqa axborotchining hikoyasida Farg‘onadagi bir qabristonni buzmoqchi bo‘lishganda bu ish uddalanmagan. Shu sababli mahalliy aholi uni «langar ko‘tarib kelgan, sizlar ularni yenga olmaysiz» deb atagan va «langar» so‘zi uning talqinida «islom bayrog‘i» ma’nosini bildiradi [7]. Bu mahalliy etimologiya bo‘lib, uning lingvistik to‘g‘riligidan qat’i nazar, jamoa qabristonni o‘zini himoya qila oladigan, mag‘lub etib bo‘lmaydigan joy sifatida eslashini ko‘rsatadi.

Uchinchi manba marosim amaliyotidir. Avliyolar kulti ritual amaliyotning ajralmas qismi ekani etnografiyada uzoq vaqtdan beri qayd etilgan [9]. Dala materiallarida bu manba uch yo‘nalishda kuzatildi. Birinchisi – shifo amallari: toshmani tuproq bilan davolash, shuningdek, axborotchining ta’kidlashicha, ko‘cha-ko‘yda yumalatib davolash holatlari va «qo‘rqitish» usuli hali ham qisman saqlanib qolgan, avvallari buni ko‘proq yoshi kattalar qilgan. Ikkinchisi – niyat bilan bog‘liq amallar: g‘assol bo‘lgan axborotchi haj safarida qo‘shnisining qizi uchun farzand tilab namoz o‘qib kelgani va keyin o‘sha qizning nevaralari bo‘lganini aytadi hamda shundan «niyatni yaxshi qilish kerak» degan xulosa chiqaradi. Bu hikoya ziyorat amaliyotida ishonch, axloqiy niyat va ijtimoiy mas’uliyat bir-biri bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Uchinchisi – yillik takrorlanish. Erta bahorda lolaqizg‘aldoq gullab bo‘lgach, ziyoratgoh hududida hashar boshlanadi, chunki gullagan paytda unga tegilmaydi va faqat qurigach tozalash ishlari o‘tkaziladi. Avgustda esa mevalar pishib, maktab boshlanishidan oldin bolalarni ziyoratga olib borish odat bo‘lgan. Shu bilan birga, axborotchilar ziyoratni shaxsiy va ruhiy ehtiyoj bilan ham bog‘laydi: ziyoratga borilsa, ko‘ngil taskin topishini, yengillashishini aytadi va juma kunlari bomdod namozidan keyin yaqinlari qabrini ziyorat qilishni odat qilganini eslaydi [7].

To‘rtinchi manba ijtimoiy institutlardir. Avlodlararo uzluksizlik, avvalo, oila va mahalla orqali ta’minlanadi. Dala materiallarida bunga bolalarni ziyoratga olib borish odati, ota-ona va bolalarning ziyoratgohdagi shifo amallarida

ISSN 3060-5059 (Online)

birgalikda ishtiroki va mahalla jamoasining yillik hashari misol bo‘ladi. Ijtimoiy aloqalar ham xotira tashuvchisi vazifasini bajaradi. Axborotchilarning ma’lumotiga ko‘ra, ulardan biri otasi nafaqaga chiqishda o‘zining do‘st-ulfatlari farzandiga «meros» bo‘lib qolayotganini va ularni mehmon qilib turishni vasiyat qilganini eslaydi [7]. Bu ijtimoiy mansublikning ham avloddan avlodga vasiyat orqali o‘tishini ko‘rsatadi.

Dala materiallarining yana bir muhim natijasi o‘zgarish haqidagi baholardir. Axborotchilar so‘nggi o‘n yilda an’ana va odatlarning tezda zamonaviylashganini ta’kidlaydi. Ular o‘lim marosimlarida avvallari azador odamning kosa-likopcha bilan yig‘lash odati bo‘lganini, ta’ziyani jarchi aytganini va unga yarim kilo go‘sht to‘langanini, hozir bu odatlar tugab ketganini eslaydi. Janoza masjiddan ko‘ra uyda o‘qilib, so‘ng qabristonga olib borilishi afzal sanalishi, shaharning torligi sababli masjidga olib borishning murakkabligi, to‘ylarga tirikning hurmati, janoza va fotihaga esa o‘likning hurmati yuzasidan borilishi haqidagi mulohazalar ham shu o‘zgarish doirasida berilgan. Ammo o‘zgarish bir xil emas. Toshma va boshqa kasalliklarni ziyoratgoh tuprog‘i bilan davolash, ziyoratgohga borib yaqinlarni ziyorat qilish va hashar kabi joyga bog‘liq amallar davom etmoqda, jarchi, kosa-likopcha bilan yig‘lash kabi o‘lim marosimining ijtimoiy-texnik sharoitga bog‘liq jihatlari esa yo‘qolmoqda. Axborotchilar ziyoratga borishning umuman kamayganini ham qayd etadi [12].

MUHOKAMA

Natijalar ziyoratgohni faqat «islomgacha bo‘lgan qoldiq» deb baholovchi qarashni [1] to‘liq qo‘llab-quvvatlamaydi. Sangdagi materiallar ziyoratgohning ko‘p qatlamliligini ko‘rsatadi: bir joyning o‘zida tosh va tuproq bilan davolash, qilich haqidagi jangchi rivoyati, «langar»ning islomiy ramzi va niyat haqidagi axloqiy tushunchalar yonma-yon yashaydi. Bu an’ananing har davrda qayta talqin qilinishi haqidagi nazariy fikrga mos keladi [10]. O‘zbek etnograflarining qadimiy tasavvurlar va islomiy qadriyatlar birgalikda mavjudligi haqidagi kuzatuvlari [2] ham shu fikrni tasdiqlaydi. Shuning uchun «xalq e’tiqodi» va «rasmiy din» o‘rtasidagi qat’iy chegara ziyoratgoh misolida shartli bo‘lib chiqadi.

Ziyoratgohning identitet bilan bog‘liqligi ham aniq ko‘rinadi. Qishloq nomi (Sang), qabriston nomlari (Langar Aziz buva, Qilichmozor) va ularga bog‘liq rivoyatlar jamoaga o‘zini tarixiy zanjirning bo‘g‘ini sifatida his qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, Sang aholisi Shohimardon va Zangi ota kabi keng ahamiyatga ega ziyoratgohlarga ham borib, mahalliy ziyoratgohni umumiy ziyorat tizimi bilan bog‘laydi. Ziyoratgoh shu ma’noda ham «bizniki» bo‘ladi, ham kengroq diniy makonning bir qismi bo‘lib qoladi.

Etnografik tadqiqotlarda sovet davrida ziyorat amaliyotining norasmiy shaklda davom etgani qayd etiladi [1; 9]. Biz o‘rgangan hududda respondentlar o‘sha davrda ziyoratgohlarning mavqeyi past bo‘lganini va ularning avlodi uzilish bilan erkinlik o‘rtasida qolganini aytadi [7]. Bu uzluksizlik to‘liq bo‘lmaganini, xotira susaysa ham butunlay uzilmaganini, o‘tish davridagi avlod esa ikkala holatni o‘zida jamlaganini ko‘rsatadi. Xotira bir tashuvchiga bog‘liq bo‘lmagani sababli, rasmiy institutlar cheklanganda ham u oila, mahalla va og‘zaki rivoyat kabi norasmiy kanallarda saqlanib qolgan. Bu fikr dala materiallarida bilvosita tasdiqlanadi, lekin uni aniq isbotlash uchun sovet davrini bevosita eslagan keksa axborotchilar bilan qo‘shimcha suhbatlar zarur.

Axborotchilarning ziyoratgohga borish kamayganini aytishi esa ushbu tayanchning o‘zi ham xavf ostida qolishi mumkinligidan darak beradi. Ziyoratgohga turistik resurs sifatida qarash kuchaygani (kirish haqi, mehmonxonalar), shuningdek, ziyorat me’yorlari borasidagi ichki bahslar (gul va chambarak qo‘yishga qarshilik) ziyoratgoh ma’nosi hozir ham turli ishtirokchilar o‘rtasida kelishiladigan masala ekanini ko‘rsatadi [11].

Bu kuzatuvlar muhofaza amaliyoti uchun ham muhim. Ziyoratgohni faqat bino yoki turistik obyekt sifatida saqlash uning xotira vazifasini ta’minlamaydi. Rivoyat, joy nomi, davolash amali va yillik tartib bilan birga hujjatlashtirilgandagina ziyoratgoh madaniy meros sifatida to‘liq saqlanadi. Tadqiqotning cheklovi shundaki, dala materiallari bitta qishloq va to‘rt axborotchiga tayanadi, shu sababli xulosalar vodiy bo‘yicha to‘liq umumlashtirilmasdan, ko‘proq ishchi gipoteza sifatida qaralishi kerak. Vodiyning turli hududlarida qiyosiy dala tadqiqotlari o‘tkazish keyingi ishlar uchun istiqbolli yo‘nalishdir.

XULOSA

Adabiyotlar va dala materiallari tahlili Farg‘ona vodiysi ziyoratgohlari diniy obyekt bilan cheklanmasligini, ular tarixiy xotira va mahalliy identitetni saqlovchi ijtimoiy-madaniy makon ekanini ko‘rsatdi. Xotira makon, og‘zaki rivoyat, marosim amaliyoti va ijtimoiy institutlar orqali bir-birini to‘ldiruvchi tarzda saqlanadi. Dala ma’lumotlari tuproq va tosh bilan davolash, Qilichmozor rivoyati, «langar» talqini, bahorgi hashar va oilaviy ziyorat odatlari bu mexanizmlarning bugun ham ishlab turganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, o‘zgarish tanlab kechmoqda: joyga bog‘liq amallar saqlanib, o‘lim marosimining ijtimoiy-texnik sharoitga bog‘liq jihatlari yo‘qolmoqda, ziyoratga borish umuman kamayganini axborotchilarning o‘zi qayd etadi. Shu sababli ziyoratgohlarni muhofaza qilishda binoning o‘zi bilan birga unga bog‘liq rivoyat, joy nomi va amaliyotlarni hujjatlashtirish va qo‘llab-quvvatlash muhim yo‘nalish bo‘lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Снесарев Г. П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – Москва: Наука, 1969. – 336 с. – URL: https://static.iea.ras.ru/books/snesarev_relikty.pdf. static.iea.ras.ru
2. Ashirov A. O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari. – Toshkent, 2007. – URL: https://cspu.uz/ozbek-xalqining-qadimiy-etiqod-va-marosimlari. cspu.uz
3. Raximov U. S. Farg‘ona vodiysi aholisi ijtimoiy hayotida ziyoratgohlarning o‘rni: magistrlik dissertatsiyasi. – Qo‘qon: Qo‘qon davlat pedagogika instituti, 2020. https://api.ziyonet.uz/uploads/books/1340894/61b1aec93c8b5.pdf.
4. Xoldorov J. Farg‘ona vodiysi ziyoratgohlarining turistik salohiyati (Farg‘ona viloyati misolida) // International Scientific-Practical Conference on “Modern Education: Problems and Solutions”. – 2024. – Vol. 3, № 3.
5. Наливкин В. П., Наливкина М. В. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. – Казань: Типография Императорского университета, 1886. – URL: https://www.prlib.ru/item/356055. Президентская библиотека имени Б.Н. Ельцина

ISSN 3060-5059 (Online)

6. Nora P. Between Memory and History: Les Lieux de Mémoire // Representations. – 1989. – № 26. – P. 7–24. – DOI: https://doi.org/10.2307/2928520. online.ucpress.edu
7. Dala yozuvlari. Namangan viloyati, Pop tumani, Sang MFY. – 2025.
8. DeWeese D. Islamization and Native Religion in the Golden Horde: Baba Tükles and Conversion to Islam in Historical and Epic Tradition. – University Park: Pennsylvania State University Press, 1994. – URL: https://www.psupress.org/books/titles/0-271-01072-X.html. psupress.org
9. Басилов В. Н. Культ святых в исламе. – Москва: Мысль, 1970. – 144 с. – URL: https://abashin.org/wp-content/uploads/2024/03/basilov3.pdf. abashin.org
10. Hobsbawm E., Ranger T. (eds.). The Invention of Tradition. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – URL: https://www.cambridge.org/core/books/invention-of-tradition/B9973971357795DC86BE856F321C34B3. cambridge.org
11. Eade J., Sallnow M. J. (eds.). Contesting the Sacred: The Anthropology of Christian Pilgrimage. – London: Routledge, 1991. – URL: https://openlibrary.org/books/OL1876606M/Contesting_the_sacred. Open Library
12. Mamatov J. Q. Namangan viloyati ziyoratgohlaridagi xalq sayillarining etnomadaniy xususiyatlari // Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar. – 2026. – Jild 3, № 4. – B. 268–271. – URL: https://publishscience.uz/sirsh/article/view/1048. publishscience.uz